

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2024

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдйбоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети


Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

1. Nodira Babadjanova O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA IJTIMOYIY BARQARORLIK VA MAMLAKAT TARAQQIYOTINI TA’MINLASHDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK – MUHIM OMIL.....	5
2. Laylo Begimqulova TEMURIY MALIKALARNING KELIB CHIQISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Saroy Mulk xonim va Xadicha begim misolida).....	13
3. Abduvali Berdiyev O‘ZBEK XONLIKLARINING ERON, AFG‘ONISTON, TURKIYA VA HINDISTON DAVLATLARI BILAN O‘ZARO ELCHILIK ALOQALARI VA UNDAN KO‘ZLANGAN IQTISODIY - SIYOSIY MAQSADLAR.....	18
4. Alisher Jalilov SIYOSIY ELITANING TURKISTONNI MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISHIGA MUNOSABATI VA O‘ZBEKISTON SSRning TASHKIL TOPISHI.....	27
5. Баҳром Джалолов СОВЕТ ХУКУМАТИНИНГ БОЛАЛАРНИ ХУҚУҚИЙ ҲИМОЯЛАШ ТИЗИМИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР.....	33
6. Sherzod Djurakulov САМАРҚАНД МУЗОФОТИНИНГ ЮҚОРИ ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ ЁДГОРЛИКЛАРИ.....	39
7. Саховат Захидова ХОЖАГОНИЙЯ-НАҚШБАНДИЙЯ ТАРИҚАТИ “ҲИМОЙАТ” ТИЗИМИНИНГ СЎНГГИ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ИЖТИМОЙ СИЁСАТИДАГИ ЎРНИ.....	44
8. Икрамжон Исмаилов ЎЗБЕКISTОН ЁШЛАРИНИ ХОРИЖДА ТАЪЛИМ ОЛИШЛАРИДА ДАВЛАТНИНГ РОЛИ.....	49
9. Энажон Нишанбаева ИЖТИМОЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ТАДРИЖИЙ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ (ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ МИСОЛИДА).....	57
10. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТЛИК АДАБИЁТ ВА САНЪАТ НАМОЁНДАЛАРИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	63
11. Gulxayo Xasanboyeva O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING RIVOJLANISHI, TARMOQDAGI ISLOHOTLAR.....	69
12. Рашид Холмуродов TARIXCHILAR TOMONIDAN O‘LKAMIZ ETNOGRAFIYASI VA ETNIK TARIXINING O‘RGANILISHI.....	73



Рашид Маматкулович Холмуродов,
O'zbekiston tarixi kafedrası professor v.b.
Jizzax davlat pedagogika universiteti

TARIXCHILAR TOMONIDAN O'LKAMIZ ETNOGRAFIYASI VA ETNIK TARIXINING O'RGANILISHI

For citation: Rashid M. Kholmurodov. STUDY OF ETHNOGRAPHY AND ETHNIC HISTORY OF OUR COUNTRY BY HISTORIANS. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 12, pp.73-77

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14497545>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarixchilarimiz tomonidan o'zbek xalqining etnik kelib chiqishiga o'zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan salmoqli hissa qo'shganliklarini ko'rsatib berishga harakat qilingan. Bunda O'zbekistonning hududi qadimdan to hozirgi kungachayashab kelayotgan qabila, urug', jamoalarining etnik tarkibini o'rgangan olimlarimizning samarali ijodlari tahlil qilingan. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda yuz berayotgan keng qamrovli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlar millatimiz va xalqimiz tarixini chuqur hamda teran tafakkur asosida ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Tayanch iboralar: etnografiya, etnotoponim, elat, urug', qabilalar, Dashti Qipchoq, Oq O'rda, ulus, Orol dengizi, Volga, Sirdaryo, O'zbeklar, Turkiy til, urf-odat, Turon, Turkiston, O'zbekiston, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Samarqand.

Рашид Маматкулович Холмуродов,
и.о.профессор кафедры истории Узбекистана
Джизакского государственного педагогического университета

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИКАМИ ЭТНОГРАФИИ И ЭТНИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ НАШЕЙ СТРАНЫ

АННОТАЦИЯ

В этой статье наши историки попытались показать, что своими научными исследованиями они внесли значительный вклад в этническое происхождение узбекского народа. При этом проанализированы результативные наработки наших ученых, изучавших этнический состав племен, родов и общин, проживающих на территории Узбекистана с древнейших времен до современности. Ведь масштабные политические, экономические, социальные и духовные изменения, происходящие сегодня в нашей стране, требуют научного изучения истории нашей страны и народа, основанного на глубоком и умственном мышлении.

Ключевые слова: этнография, этнотопоним, элат, род, племена, Дашти Кипчак, Белая Орда, улус, Аральское море, Волга, Сырдарья, узбеки, тюркский язык, традиция, Туран, Туркестан, Узбекистан, Бухара, Хива, Фергана, Самарканд.

Rashid M. Kholmurodov,

Acting Professor of the Department of History of Uzbekistan
Jizzakh State Pedagogical University

STUDY OF ETHNOGRAPHY AND ETHNIC HISTORY OF OUR COUNTRY BY HISTORIANS

ABSTARCT

This article attempts to demonstrate how our historians have made a significant contribution to understanding the ethnic origins of the Uzbek people through their scientific research. It analyzes the productive work of our scholars who have studied the ethnic composition of tribes, clans, and communities that have lived in the territory of Uzbekistan from ancient times to the present day. After all, the large-scale political, economic, social and spiritual changes taking place today in our country require a scientific study of the history of our country and people, based on deep and intellectual thinking.

Index Terms: ethnography, ethnotoponym, ethnicity, clan, tribes, Dasht-i Kipchak, White Horde, ulus, Aral Sea, Volga, Syr Darya, Uzbeks, Turkic language, customs, Turan, Turkestan, Uzbekistan, Bukhara, Khiva, Fergana, Samarkand.

Dolzarbligi:

Ma'lumki, har bir xalqning tarixi uning etnogenezi va etnik tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Etnogenez etnik tarixning ma'lum bosqichlarida vujudga kelib ma'lum bir etnosning elat, xalq bo'lib shakllanishiga qadar bo'lgan davrda davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayondir. Odatda, biror bir xalqning etnik shakllanishi, uning etnik qatlamlari tarkibini aniqlamay turib, u xalq haqida, u tarkib topgan hudud va uning davlatchiligi haqida biror ilmiy tasavvur yaratish mumkin emas.

Mustaqillik yillarida xalqimiz o'rtasida milliy o'zligimizni anglashga bo'lgan intilish yuksala borib, o'tmishimizga, ajdodlarimizning shonli yo'li va boy ma'naviy merosiga qiziqish kuchaydi. Darhaqiqat, tarixchilar oldida turgan eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biri o'zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi) tarixini xolisona tadqiq etishdan iborat. Ushbu maqolada o'zbek xalqining shakllanishi jarayoni tarixiy manbalarga tayangan holda ilmiy tahlil etilgan.

Metodlar:

Maqolada umumqabulqilingan ilmiylik, xolislik, tarixiylik kabi usullardan foydalangan holda, tarixchilar tomonidan o'lkamiz etnografiyasi va etnik tarixining o'rganilishi tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalari:

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari ajoyib ensiklopedist olim Muhammad Al Xorazmiy, faylasuf va musiqashunos Abu Nasr Farobiy, ulug' ensiklopedist olim Abu Rayxon Beruniy va buyuk tabib Abu Ali Ibn Sino, geograf va tarixchi Al Farg'oniy, Abu Sa'd Abdulkarim, Ibn Muhammad Somoniy kabilarning asarlarida ham o'zbeklar va boshqa Markaziy Osiyolik xalqlarning bevosita ajdodlari, ularning maishiy, turmush madaniyatining ayrim tomonlari bayon qilingan.

O'zbek xalqining etnografiyasini o'rganish, o'zbek xalqining kelib chiqish, etnik tarkibi masalalarini o'z asarlarida bayon qilishda atoqli sharqshunos olimlar B.Ahmedov, A.Asqarov, I.Jabborov, O'.Nosirov, K.Shoniyozev va boshqalarning hissasi nihoyatda katta bo'ldi.

Etnografiyadagi eng muhim muammolardan biri milliylikni aniqlash hisoblanadi. Ularning o'zbek millatiga singib ketishi jarayonini etnografiyalardan V.G.Moshkova, K.L.Zodixona, B.K.Karmishova, I.Jabborov, T.Fayziyevlar tomonidan o'zbek etnografik guruhlaridan loqay, qorluk, qurama hamda Shimoliy Xorazm va Zarafshon vodiysida yashovchi ayrim urug' qabilalar mukammal o'rganildi.

Hozirgi davrda etnograf olimlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri xalqlarning kelib chiqishi tarixini va ular haqidagi etnografiyaga oid ma'lumotlarni to'plash, yig'ish, umumiyalashtirish va o'rganish, ilmiy xulosalar chiqarishni talab qiladi.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha O'rta Osiyo mintaqalarida IX-X asrlarda Qarluq, O'g'uz, Uyg'ur, Somoniylar va Xorazm shoxlar davlati mavjud bo'lgan. Bu davlatlar hududida turg'un aholi hamda bir qancha qabila va elatlar yuzaga kelgan. Bu davrda O'rta Osiyoda yashovcha aholining ko'pchilik qismi Turkiy tilli bo'lib, ularning katta qismi turg'un yashab kelgan bo'lsa, bir qismi ko'chmanchi va yarim o'troq holda hayot kechirishgan. Ko'chmanchi qabilalar asosan chorvachilik bilan bir qatorda dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan.

Turkiy tilli aholining ko'pchiligi ikki azim Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida, ya'ni Movarounnaxr va Xorazim vohasida istiqomat qilishadi. Turkiy tilli aholining talay qismi Sirdaryo sohillarida, Yettisuv va Sharqiy Turkistondagi iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha taraqqiy qilgan shahar va qishloqlarda yashagan, O'rta Osiyoda qadimgi Turkiy tilli turg'un aholi bilan yonma yon, tojiklar ham yashashgan. Tojiklarning ko'pchiligi Movarounnaxr va Xurosonda joylashgan bo'lsa, ularning ayrim guruhleri IX – X asrlarda sharqiy Turkistonda ham istiqomat qilishgan[1].

Arab – fors tilli manbalarda bayon qilinishicha Turkiy tilli xalqlar qaysi hududda yashamasinlar tojiklar ham o'sha yerda yashab kelganlar. Ana shuning uchun bo'lsa kerak, Maxmud Qoshg'ariy "Totsiz" turk bo'lmas, boshsiz burk bo'lmas, ya'ni boshsiz burk (qalpoq) bo'lmagandek, totsiz turk ham bo'lmaydi degan maqolani keltirgan[2].

Shahar va qishloqlarda turkiy tilli aholi bilan birga sug'diylar ikki tilda sug'd va turk tilida erkin so'zlaydi. Maxmud Qoshg'ariy o'z asarida, "Bolasug'onliklar Sug'dcha va Turkcha so'zlashadilar. Tarozi va Madana to'laboyza shaharlarning xalqlari sug'dcha, ham turkcha so'zlaydilar"[3] deb ta'kidlagan edi.

O'z navbatida turkiy tilli ayrim etnik guruhlar etnograf olim K.Shoniyozevning yozishicha guruhlar Yettisuvda yashagan qanjan va arg'unlar ham ikkala tillarda birdek so'zlaganlar. Movarounnaxr shahar va qishloqlarda sug'd va turkiy tillarda birdek so'zlovchi kishilar juda ko'pchilikni tashkil qilgan. Movarounnaxrda va unda tutash mintaqalarda yashagan Sug'diylar va Turkiy xalqlarning etnik tarixi ham buni yorqin tasdiqlaydi.

IX-X asrlarda Xorazm o'lkasida turk-o'zbek tilida so'zlashuvchi aholi bilan turkiy tilli etnik guruhlar ham yashagan. Bularning talay qismi shahar va qishloqlarda o'rnashgan bo'lsa, voha atrofida cho'llarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qansi, pecheneg, o'g'uz va boshqa qabilalar istiqomat qilishib, turkiy tili etnik guruhlar davlatning etnik iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida faol ishtirok qilganlar.

O'rta Osiyoda joylashgan yirik etnik guruhlardan yana biri o'g'uz etnosi bo'lib, ular IX-X asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida Orol dengizi atroflarida ayrimlari Shosh va Kaspiy dengizning Sharqida Balxan tog'larida ham o'rnashgan edilar[4]. O'g'uz etnosi bir qancha qabilalardan Maxmud Qoshg'ariy [5] urug'idan tashkil topganini bayon qilsa Rashiddin Abulg'oziy esa 24 urug'[6] nomlarini keltiradi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, VIII-XI asrlarda Sirdaryo va Orol dengizi yaqinidagi mintaqalarida yirik qabila ittifoqi davlati tashkil qilib, o'z tiliga, etnik nomiga iqtisodiy va madaniyatga ega bo'lgan elat – O'g'uz elati yuzaga kelib ularning qarorgohi Yangikent shahri hisoblangan.

Etnograf olim K.Shoniyozevning "O'zbeklar" asarida bayon qilinishicha, Farg'ona vodiysining Shimoliy mintaqalarida qarluqlar urug'i hukmronlik qilgan. O'sha davrlarda qarluq va Movarounnaxr hududida yashovchi turkiy xalqlarning o'zaro yaqinlashib borishi natijasida ularning iqtisodiy, madaniy umumiylik, til birligi va boshqa etnik ko'rsatgichlar hosil bo'lib, o'zbek xalqining ajdodlari alohida elat bo'lib shakllangan edi. Avvalo, Movarounnaxr hamda Yettisuvda istiqomat qiladigan turkiy aholining hissasi ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek etnik nomining kelib chiqishi, Dashti qipchoqdan tashkil topgan Oq O'rda va Shayboniy ulusida, Sirdaryo, Orol dengizi va Volga bo'ylari oralig'idagi keng hududda ko'chib yurgan XIV asrdan boshlab o'zbeklar deb yuritilgan turk qabilalari bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademiklari Axmadali Asqarov, Bo'riboy Axmedov asarlarida ham Dashti Qipchoqda qadimda va o'rta asrlarda asosan turkiy xalqlar va yashab kelganligi bayon qilingan. Ana shu qipchoq cho'lining turk qavmlari aholisi tarixiy asarlarda XIII asrning 80 – yillaridan boshlab “O'zbek” nomi bilan uchraydi. Masalan, Xamidulla Kazviyni (1281- 1350) Dashti qipchoqni “Mamlakati o'zbek – o'zbeklar mamlakati, yoki o'zbeklar ulusi”[7] deb ta'riflagan. Al – Kalkoshandiy (1418 yili vafot etgan) ularning O'zbek malikasi podsho bo'lganligi haqida ma'lumot bersa. Sharafiddin Ali Yazdiy (1454 yil vafot etgan), Abdurazzoq Samarqandiy (1413- 1482) va Xondamir (1475 - 1535) asarlarida o'zbeklar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Nizomiddin Shomiy To'xtamishning Samarqandga kelishi haqidagi hikoyasida yozilishicha. Sohibqiron Amir Temurni To'xtamishga O'tror va Sarvon viloyatlarini beradi va uni o'sha yerlarga jo'natadi. Biroz vaqt o'tgach, o'zbeklar podshosi O'rusxonning o'g'li Qutlug' Bug'o bu viloyatlarga qo'shin suradi va ko'p jang qiladi.

Temur qo'shinlari Sariq o'zan degan joyga etib kelganda no'yonlar va amirlar yig'ilishib. “Agar biz avvalo Mo'g'uliston xoni Xizirxo'janing lashkarboshlaridan Anqo to'rani bartaraf qilib, uning yovuz niyatlarini yo'q qilib, so'ng o'zbeklar yurtiga (diyori o'zbek) kirib borsak to'g'riroq bo'lardi” deb maslahat beradi. Abdurazzoq Samarqandiy Amir Temurning To'xtamish ustiga yurishi haqida gapirib, “1390 yili Temur Mo'g'ulistonga yurish qildi, unga yo'l- yo'lakay asirlar xabar berdilarkim, Anqoto'ra Mo'g'ulistondan qochib ketdi va o'zbek dashtlarida (dar sahroi o'zbek) yashiringan” deydi.

Xondamir 1389 – 1391 yil voqyealari haqida hikoya qilarkan, yuqoridan nomi eslatilgan To'xtamish qo'shinini “o'zbeklar qo'shini” (sipohi o'zbek) deb ataydi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, XIV asrning so'nggi choragidan Dashti Qipchoq aholisi, aniqrog'i avval Oltin O'rda xalqi “O'zbeklar” nomi bilan atalib kelgan. O'zbekxon (1312- 1341), To'xtamish (1376- 1396) va Oltin O'rdaning boshqa xonlari, ularning qo'shinlari, bolachaqalari, o'zlarini “o'zbeklar” deb atay boshlaydilar[8].

O'zbeklar o'tmishda bir qancha urug'- qabilalar (etnik guruhlar)ga bo'lingan. Tarixiy hujjatlar, keksa avlod kishilarning ma'lumotiga qaraganda, jami o'zbek – urug' qabilasi 92 ta ekanligi (92 qavmli o'zbek) bayon qilinadi. Ammo, etnograf olimlarning etnografik dalil tadqiqotlariga qaraganda o'zbeklarning qavmlari bundan ham ortiq bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud. O'zbek qavmlarining qo'ng'iroq, mang'it, qochin, durmon, qutchi, laqay kabi yirik urug'larga o'z navbatida yana kichik-kichik guruhlariga bo'linadi. Bu muhim masalani har tomonlama chuqur va ilmiy asosda o'rganish hozirgi davrda etnograflar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Etnografik tadqiqotlarning keng ko'lamda olib borilishi o'zbek xalqining g'oyat boy madaniy merosini yanada chuquqroq o'rganish imkonini beradi. Hozirgi kunda o'zbek atamasi o'zining etnik mazmunini o'zida to'la ifoda etadi. Bu etnik nom jahonda tan olingan.

Taniqli etnograf olim Zaki Validiy o'zining o'zbek urug'lari maqolasida o'zbeklarning qabila tuzilishiga ko'ra, 92 urug'ga, uning 49 tasi turk qavmiga qolgan 43 tasi mo'g'ul qavmiga bo'linganligini bayon qiladi[9]. Tarixchi olim Qozoqboy Mahmudov o'zbek urug'lari sonini 76 deb ko'rsatgan. Qolganlari mo'g'ul qabilalari deb ko'rsatadi. Professor O'rol Nosirov 92 urug'larining barchasini turkiy qavm ekanini isbotlab beradi[10].

Shunday qilib, respublikamiz tarixchilari O'zbekiston xalqining tarixiga etnografiyasiga, etnik tarixiga doir qimmatli ma'lumotlar to'plab, nashr ettirdilar. Ular ilmiy tadqiqot ishlarida o'zbek xalqining qadimgi davridan boshlab, etnik kelib chiqishi, urf-odatlar, tarmush tarzi va madaniyatining turli sohalarini rivojlanishi tarixiga o'zlarini munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Maxmud Qoshg'ariy. Devoni lug'ati turk. 1 jild. – Toshkent, 1960. 33 bet.
2. O'sha asar, 65- bet.

3. Maxmud Qoshg'ariy. Devoni lug'atit turk. 1 jild. – Toshkent, 1960. 66- bet.
4. Agadjonov S.G. Ocherki istorii oguzov i turkmen Sredney Azii IX – XIII vv. – Ashgabad, 1989. 75 – bet.
5. Maxmud Qoshg'ariy. Devoni lug'atit turk. 1 jild. – Toshkent, 1960. 80 bet.
6. Abulg'oziy Baxodirxon. “Shajarai turk”. – Toshkent, 1994. 53 bet.
7. Jabborov I. “O'zbek halqi etnogirafiyasi”. – Toshkent: “Fan”, 1964. 41-bet.
8. Axmedov B, Asqarov A. “O'zbekiston ovozi”. 1994, 20 yanvar.
9. Zaki Validiy. O'zbek urug'lari. O'zbekim. – Toshkent, 1992.
10. Nosirov O'. O'zbeklar shajarasi. – Toshkent, 2012. 386-bet.

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 12

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000